

## KLINIK AMALIYOT JARAYONIDA BO'LAJAK SHIFOKORLARNING MANTIQUIY-KLINIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

*Zikirayeva Manzura Mavlonovna*

*BuxDTI O'zbek tili va adabiyoti, rus tili,  
pedagogika, psixologiya kafedrası doktoranti*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tibbiyot institutlari talabalarining ta'lim sifatini oshirish, tibbiy ta'limning ustuvor maqsadi va uning samaradorligi mezonini bo'lajak shifokorning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish va professional komponentni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tibbiyot instituti talabalarining klinik amaliyot jarayonida mantiqiy klinik tafakkurini rivojlantirish jarayoni ijodiy jarayon bo'lishi muhimligi ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** Tibbiy ta'lim, klinik amaliyot, zamonaviy talab, ijodiy fikrlash, tasavvur, samaradorlik, rivojlantirish, mantiqiy tafakkur.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы повышения качества образования студентов медицинских учреждений, приоритетной целью медицинского образования и критерием его эффективности являются развитие личностного потенциала будущего врача и реализация профессиональной составляющей. Показано, что процесс развития логического мышления студентов медицинского института в ходе клинической практики является творческим процессом.

**Ключевые слова:** Медицинское образование, клиническая практика, современный спрос, креативное мышление, эффективность, развитие, логическое мышление.

### ABSTRACT

This article discusses the issues of improving the quality of education of students of medical institutions; the priority goal of medical education and the criterion of its effectiveness are the development of the personal potential of the future doctor and the implementation of the professional component. It is shown that the process of development of logical thinking of medical institute students during clinical practice is a creative process.

**Key words:** Medical education, clinical practice, modern demand, creative thinking, efficiency, development, logical thinking.

Klinik amaliyot - bu klinik ma'lumotlarga asoslangan sog'liqni saqlash xodimlari tomonidan bemorlarni davolash va boshqarish. Tibbiy yordam ko'rsatuvchi


provayderlar va bemorlarga muayyan holatlar uchun eng mos yordamni tanlashda yordam berish uchun klinik amaliyot ko'rsatmalari ishlab chiqilgan. Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining ta'lim sifatini ko'tarish haqida fikr yuritar ekanmiz, biz ko'pincha bu bilan shakllangan xususiyatlarning ishonchliligini, olingan ta'limning, fanning bugungi holatiga, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga mosligini, qo'shimcha parametrlarning o'zgarishini hisobga olgan holda tushunamiz, bular ta'limning qadr-qimmatini oshiradilar [2].

Zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqib, yangi ta'lim paradigmasi [4] ta'lim muassasalari oldiga muvaffaqiyatli raqobat va bitiruvchilarga bo'lgan talabni qondirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashga moslashuvchan munosabatda bo'lish vazifasini qo'ydi[1]. Qo'yilgan vazifalarni yechish innovatsiyalarga va butun kasbiy faoliyati davomida ta'lim olishga tayyor bo'lgan harakatchan, o'z-o'zini yo'naltira oladigan shaxsni shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq. Bugungi kunda kasbiy tayyorgarlik bemorlarning ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatiga bo'lgan talablarini oshishida va xususan, shifokorlarni vaqti-vaqti bilan ommaviy axborot vositalarida malakasizlikdagi ayblovlari shifokor-bemor munosabatlarining interfaol metodining bosqichma-bosqich yo'qolishi, shifokorga muqaddas bilim tashuvchisi sifatida munosabatning yo'qolishi, bu bilan birga ishonchning yo'qolishi, bilan bog'liq sharoitda o'z ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrni erkin tanlash imkoniyatini oshirish yo'nalishida amalga oshirilmoqda. Bunday sharoitda bakalavrlarni tayyorlashga yondashuvni insoniyatning global muammolarini hal qilish bilan birgalikda, talabalarning ham dolzarb ehtiyojlarini qondirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish zarurati kelib chiqadi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida oliy oliygozlarda o'qitish jarayoni kundan-kunga murakkablashib borayotganligi sir emas. Endilikda, pedagog uchun o'z mutaxassisligini a'lo darajada bilish orqali auditoriyada to'plangan talabalarga ulkan bilimlar bazasini berish yo'nalishidagi kasbiy kompetentligini namoyon qilishning o'zi kamlik qiladi.

Muammoni tushunishda quyidagi qarashlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni aytib o'tish kerak: - jamiyatning mantiqiy tafakkurga ega bo'lgan bo'lajak shifokorlarga bo'lgan ehtiyoji va institut sharoitida bakalavrlarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishni tashkil etishning yagona muvofiqlashtirilgan strategiyasining yo'qligi; - kasallikni aniqlash va uni samarali davolashning zamonaviy o'qitish metodologiyasini, shuningdek, institutda shaxsiy rivojlanish va o'zini-o'zi kasbiy shakllantirish vositasi sifatida klinik (diagnostik va terapevtik) qarorlar qabul qilish metodologiyasini o'rganishga talab va qoidalari shu bilan birga ushbu jarayonni ta'minlash mexanizmlari yo'qligi; - bo'lajak shifokorlarni kasbiy tayyorlash jarayonining samaradorligini oshirish zarurati va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarning noaniqligidir.

Ta'limning yangilanadigan paradigmasining asosiy xususiyati - shaxsga yo'naltirilgan ta'lim kontseptsiyasiga o'tish bo'lib, u bo'lajak mutaxassisning printsiplar sintezi; fundamentallik, individuallashtirish, shaxsiy o'zini-o'zi rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini amalga oshirish, kasbiy va ijtimoiy o'zini-o'zi anglash asosida intellektning ustuvor rivojlanishini kafolatlaydigan kasbiy kompetensiya darajasiga erishishni nazarda tutadi.





Tibbiy ta'limning ustuvor maqsadi va uning samaradorligi mezonini bo'lajak shifokorning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish va professional komponentni amalga oshirishdir.

Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarining umumiy vazifasi bu kasbiy mahorat asosida yangi sharoitlarga moslasha oladigan bitiruvchilarni tayyorlashdan iborat [6]. Ayniqsa, tibbiy yo'nalishdagi ta'lim muassasalariga yuqori talablar qo'yilmoqda. Bemorga mustaqil ravishda zarur tibbiy yordam ko'rsatishga, mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga qodir yuqori malakali mutaxassisning roli keskin ortib bormoqda. Bu qo'llab-quvvatlovchi ta'limdan (o'quvchilarni odatiy vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashga qaratilgan) muqobil innovatsion ta'limga (noaniqlik holatlari uchun zarur bo'lgan professionallikning ajralmas xususiyatlariga ega bo'lgan mutaxassisni shakllantirish) o'tishni talab qiladi.

Aniqlanishicha, bu turdagi ta'limning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: ta'lim mazmunini fanlararo tashkil etish; mazmuni va o'qitish usullarining innovatsionligi; bitiruvchilarning nafaqat o'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, balki tubdan yangi bilim va texnologiyalarni yaratish qobiliyati; talabalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish.

Tibbiyot oliy o'quv yurti talabalarining mantiqiy-klinik tafakkurini shakllantirish jarayoni ularning mustaqil o'quv va ilmiy faoliyati bilan maqsadli tashkiliy birlik va ko'p bosqichli integrativ pedagogik texnologiyalar, professional harakatlar va klinik-kontent tadqiqot vazifalarining haqiqiy tibbiy amaliyotga yaqin bo'lgan algoritmlarni o'z ichiga olgan yaxlit uslubiy tizim bilan didaktik ta'minlansa samarali bo'ladi. Tasavvur etish, tafakkurning rivojlanishidir.

Klinik tafakkur - bu boshlang'ich aqliy operatsiyalar: tibbiy diagnostika, terapevtik va ijodiy-texnologik prognozlar yo'nalishi bo'yicha tahlil, taqqoslash, sintez va umumlashtirish, yakuniy: qaror qabul qilish, nazorat qilish va davolash jarayonlarining jihati va shifokor va bemorning psixologik-pedagogik o'zaro ta'siri asosida baholashni amalga oshiradigan professional-tizimli tafakkurdir. Eng qisqa ta'rifni prof. R.G. Artamonov beradi: "Klinik tafakkur - bilim, tajriba va tibbiy sezgi asosida ma'lum bir bemorda kasallik diagnostikasi, davolash va prognozi masalalarini professional, ijodiy hal qilish"[3].

Tibbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, ushbu aqliy operatsiyalar kasbiy jihatdan o'ziga xos ifodaga ega bo'ladi - simptomatik-kompleks tahlil, nazariy va amaliy-klinik taqqoslash, nazariy shartli umumlashtirish - obraz, amaliy-shartli umumlashtirish - obraz, texnologik qarorlar qabul qilish, refleksiv-baholovchi nazoratdir.

Talabalarning klinik tafakkurini rivojlantirishning asosiy yo'nalishi ularning o'quv va ilmiy faoliyatidir. Bu insonning kasbiy, shu jumladan tibbiy faoliyat sub'ekti sifatida shakllanishining umumiy shartlari bilan bog'liq. O'quv va ilmiy-tadqiqot

faoliyati jarayonida maqsadlarni muvofiqlashtirish quyidagicha mantiqiy sodir bo'ladi: talaba ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi intellektual darajada - pedegogning ta'lim faoliyatini intellektual o'zini tashkil etishini; talabaning analitik va kognitiv harakatlarini rag'batlantirish - mustaqil izlanish va o'z faoliyatini tashkil etish; talabalarning klinik tafakkurining tarkibiy elementlarini bosqichma-bosqich shakllantirish - ular tomonidan klinik tafakkurning tarkibiy elementlarini bosqichma-bosqich to'plash va shifokor mutaxassisligi standartiga o'zaro, ikki tomonlama erishish.

Klinik tafakkurning birinchi ko'rinishlari o'qishning uchinchi yilida talabaning o'zida kasallikning klinik belgilarini izlash shaklida kuzatiladi. Talabalarning klinik tafakkurini shakllantirish jarayoni va ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish yagona tizimni qo'llab-quvvatlovchi asosga ega, ular faoliyatining ma'lum bir bosqichida yangi ifoda - maqsadni amalga oshirishga asoslanadi.

Klinik tafakkur xususiyatlarni aniqlash, tahlil va sintez, taqqoslash va farqlash, abstraktsiya va umumlashtirish, mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya, bilim va tajriba va boshqalar kabi operatsiyalarga asoslanadi.

Klinik tafakkur - bu "bemor to'g'risida turli yo'llar bilan olingan barcha ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va sintez qilish, bir vaqtning o'zida ilgari duch kelgan kuzatuvlar, nazariy bilimlari va sezgi (tajriba) bilan individual tashxis qo'yish, davolash taktikasini belgilash qobiliyati"dir [5]. Klinik tafakkur - bu muayyan kasbiy faoliyat doirasida amalga oshiriladigan ijodiy jarayon.

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida inson qalbini kichiklikdan boshlab yaxshilik, oliyjanoblik, insonparvarlik, odamgarchilik, aql-idrokli bo'lish, odo-axloqlilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, poklik, so'zamollik, xushso'zlilik, ilmi bo'lish kabi xislatlar bilan boyitish inson kamolotining me'yori bo'lib kelgan.

Talabalar uchun tibbiyot oliygohida o'qishning boshidanoq shifokorlik kasbini egallash jarayoni ko'p sonli tibbiy fanlarni o'rganishdan boshlanadi, bu ko'plab tushunchalar va atamalarni ishlab chiqishni, ularni eslab qolishga harakatni o'z ichiga oladi va talabalardan kuchli harakatni talab qiladi. Bu nazariy bilimlar klinik masalalarni yechishda bevosita talabalarning amaliy faoliyatida emas, talabalar ularni faqat nazariy kafedralarda boshlaydilar, balki faqat vaziyatli topshiriqlarda aktuallashtiriladi. Shuning uchun talabalar klinik vazifalar, shifokorning kasbiy faoliyati bilan bog'liq holda katta hajmdagi nazariy materialni o'zlashtirishda o'zlari uchun shaxsiy ma'no topmaydilar. Natijada ularning o'quv jarayoniga qiziqishi yo'qoladi, motivatsiyasi pasayadi. Agar talaba nazariy materialning ushbu ulkan qatlamini nima uchun o'rganayotgani, bu shifokor o'z kasbiy faoliyatida hal qilishi kerak bo'lgan klinik vazifalar bilan qanday bog'liqligi haqida ozgina tasavvurga ega bo'lmasa, hatto iroda, qat'iyat va sabr-toqatning namoyon bo'lishi ham vaziyatni tubdan o'zgartirishga yordam bermaydi.



Mantiqiy tafakkur yuqori darajadagi fikrlash jarayoni bo'lib, u talabalarning kontseptual bilim olishida qo'llanilishi mumkin. U muammolarni aniqlash va tahlil qilish hamda tegishli xulosaga kelish uchun tegishli ma'lumotlarni izlash va baholash qobiliyati sifatida ta'riflanadi. Shunday qilib, mantiqiy fikrlash tibbiyot talabalariga o'zlarining ta'lim ehtiyojlarini baholash va ularning istiqbollari tushunish imkonini beradi. Bu kelajakda muntazam klinik amaliyotlar paytida muammolarni hal qilish va samarali klinik qarorlar qabul qilish qobiliyatini yaxshilashga yordam berishi mumkin.

Shu sababli, shifokorlik kasbini egallashning dastlabki qadamlaridan boshlab, tibbiyot talabalarini ijodiy-mantiqiy klinik tafakkurni shakllantirishlari kerak, bu nazariy va klinik fanlar o'rtasidagi magistrat aloqalarni ajratishni o'z ichiga oladi. Birinchi kursdayoq talabalar amaliy klinik muammolarni hal qilishda bilim va ko'nikmalar qanday ekanligi haqida birlamchi umumiy tasavvurni shakllantirishlari kerak. Klinik (ijodiy) tafakkurni shakllantirish o'ziga va dunyoga nisbatan bazaviy munosabatni yaratishni o'z ichiga oladi, bu o'zgaruvchan, mustaqil, mazmunli pozitsiyani nazarda tutadi. Bu pozitsiya ta'limning ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi, chunki u ongli va refleksiv bo'ladi.

Klinik amaliyot bilan bog'liq asosiy yo'nalishlar tibbiy diagnostikani amalga oshirishda nazariy bilimlar, empirik tajriba va ko'nikmalarni to'plashni optimallashtirishning didaktik usullaridir. Klinik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish usullarini takomillashtirish, klinik amaliyotni tashkil etish va moddiy-texnika ta'minotini takomillashtirish bilan bir qatorda, tibbiy yordam samaradorligini oshirishga qaratilgan ancha dolzarb va muhim tashkiliy-uslubiy vazifadir.

Klinik tafakkurga ega bo'lgan shifokorni quyidagi qobiliyatlarga ega bo'lgan mutaxassis sifatida ta'riflash mumkin:

- bilimlarni to'plash va boyitish;
- klinik ko'rinishlarning turli xususiyatlarini sezish va farqlash, muammoli vaziyatlarda bilimlarni qo'llash;
- o'z ustida muntazam ishlash
- intuitiv his qilish.

Shunday qilib, klinik tafakkur stereotipli tafakkur emas. Bu sof professional, tibbiy tafakkur ekanligi aniq. Uni o'zlashtirishni istamagan odamga o'rgatish mumkin emas. Klinik tafakkurni o'rgatish jarayoni faqat ijodiydir. Tibbiyot oliygohi talabalarining klinik tafakkurini shakllantirish jarayoni - bu talabalarning pedagogik va individual maqsadlarining umumiy yo'nalishini, pedagog tomonidan o'quv jarayonini tadqiqot darajasiga o'tkazishni va talabalarning o'quv faoliyatida o'z-o'zini tahliliy-qidiruv tizimini aks ettiruvchi uslubiy tizimdir. Talabaning analitik va kognitiv harakatlarini pedagogik rag'batlantirish va tadqiqot ko'nikmalarini mustaqil ravishda to'plashni ta'minlash, klinik tafakkurni rivojlantirish va uning elementlarini talaba sa'y-harakatlari bilan bosqichma-bosqich to'plash uchun didaktik yordam berish

kerak. O'quv jarayonida an'anaviy va noan'anaviy vositalar (dasturiy ta'lim matnlari, tadqiqot orqali talaba tomonidan mustaqil ravishda olingan yangi bilimlar, innovatsion tibbiy amaliyot modellari); shakllar (nazariy va turli amaliy tadqiqotlar) va o'quv-eksperimental usullardan foydalanish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019-yil 23-sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari raxbar va pedagog kadrlarining uzluksiz mala-kasini oshirish
2. jarayonlarini tashkil etish tartibi tuFrisida"gi 797-son Karori // Uzbekiston Respublikasi konun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2019-y., 09/19/797/3793-son.
3. Anoshkin, N.K. Psixologo-pedagogicheskiye osnovy formirovaniya reflektivnogo klinicheskogo mishleniya [Tekst]: Dis. ... d-ra psixol. nauk / N.K. Anoshkin. - Perm, 2001 - 358 c.
4. Artamonov, R.G.O klinicheskoye mishleniye [Elektronnyy resurs]. / R.G.Artamonov. // Medreferat.ru . – Rejim dostupa: [http://medreferat.ru/referat/new/9999/2154?phrase\\_id=421571](http://medreferat.ru/referat/new/9999/2154?phrase_id=421571):
5. Zimnyaya I.A. Klyuchevyye kompetensii - novaya paradigma rezultata obrazovaniya. // "Eksperiment i innovatsii v shkole" jurnali. 2009. №2.
6. Kuzminov O.M., Pshenichnykh L.A., Krupenkina L.A. Formirovaniye klinicheskogo mishleniya i sovremennyye informatsionnyye tehnologii v obrazovanii: monografiya. - Belgorod: nashriyot uyi, 2012. - 110-yillar.
7. Mustafoyeva Durdoni Asilovna, "Oliy ta'lim muassasalari ixtisoslik fan o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish" Zamonaviy ta'lim / sovremennoe obrazovanie 2020, 7 (92)
8. Агзамова, Н. Ш., & Каримов, А. Р. (2022). СОЦИОБИОЛОГИЯ И БИОЭТИКА. Academic research in educational sciences, 3(NUU Conference 2), 232-241.
9. Агзамова, Н. Ш., & Адилова, А. Ш. (2020). ЭТИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ПАНДЕМИИ КОВИД-19. Научный журнал " Академический вестник ЭЛПИТ, 6. Зикиряева, М. М. (2024). Формирование навыков логического мышления у студентов-медиков: методы и способы. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 14(4), 151-155.
10. ММ Зикиряева Психологические механизмы формирования социального воображения у подростков // Новый день в медицине. - 2020. - №1. - С. 151-154.
- 11.8. Манзура Зикиряева Педагогические аспекты развития логического мышления будущих врачей // Евразийский журнал академических исследований. - 2023/3/14. - №3 Part 2. - С. 159-164.

12. Manzura Zikiryaeva Pedagogical aspects of the development of logical thinking of future doctors // Центральноазиатский журнал образования и инноваций. - 2023/6/16. - №6 Part 4. - С. 148-153.
13. Манзура Мавлоновна Зиқиряева Тиббиёт олий таълим муассасалари талабаларини мантикий тафаккурини ривожлантиришнинг психологик механизмлари // Journal of new century innovations. - 2022/11/7. - №3. - С. 33-39.
14. Зиқиряева Манзура Мавлоновна Олий таълим муассасалари талабаларида креативликни шакллантириш // eurasian journal of academic research. - 2022/10/19. - №2022/10/19. - С. 926-931.
15. Manzura Zikiryaeva, Muhabbat Hakimova Psychology in teaching english language // Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. - 2022/5/10. - №5. - С. 228-232.
16. Madaniyatlararo tafovutlarning glaballashuv sharoitida ijtimoiy–psixologik xususiyatlar // MM Zikiryaeva. - 2022/4/4. - №3. - С. 240-245.
17. Зиқиряева Манзура Мавлоновна Психологические особенности взаимоотношений мальчиков и девочек в младших классах // Вестник интегративной психологии. - 2022. - №24. - С. 128-130.
18. M Zikiryaeva SHaxs psixologiyasida ranglarning egallagan o'rni xususida // Тафаккур ва талқин. - 2020/5/15. - №1. - С. 475-485.
19. Зиқиряева Манзура Мавлоновна Ўсмирлар хулқ-атворида ижтимоий қадриятлар шаклланишига таъсир этувчи омилларни методологик асослари // Psixologiya. - 2020. - №4. - С. 124-128.
20. Ахмедов А А, Зиқиряева М М О методологии психологического образования // Вестник интегративной психологии. - 2019/9/3. - №79. - С. 63-67.
21. Манзура Зиқиряева Бошланғич синф ўқитувчисининг ўзига хос психологик хусусиятлари // “Journal of new century innovations” international interdisciplinary research journal. - 2022/5/5. - №1. - С. 244-249.